O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
CHARACTERISTICS OF APPLYING NEW HETEROCOMPOSITE POLYMER MATERIALS IN ENGINEERING ACTIVITIES.....	1609
Umida Ziyamukhamedova, Mirjalol Abdulakimov	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	



TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIAVIYY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI



Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: ulashbaeb.shoxrux.97@mail.ru

ORCID: 0009-0002-6483-5261

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini shakllantirish va uni moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi bilan uzviy bog'lashning nazariy hamda uslubiy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda komplayens-nazoratning bank faoliyatida qonunchilik, ichki siyosatlar va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, bank tizimida moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashda komplayensning funksional yo'nalishlari — risklarni boshqarish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, muammoli kreditlar ustidan nazorat va shubhali operatsiyalarni monitoring qilish kabi jarayonlar ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy jinoyatlar, pul yuvish, nazorat, shubhali operatsiyalarni monitoringi, bank, tijorat banklari moliyaviy xavfsizligi, komplayens.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological aspects of forming a compliance control system in commercial banks and its close relationship with the mechanism for ensuring financial security. The study thoroughly examines the role of compliance control in maintaining adherence to legislation, internal policies, and international standards in banking operations. Furthermore, it scientifically assesses the functional directions of compliance in strengthening financial security — including risk management, prevention of corruption, control over non-performing loans, and monitoring of suspicious transactions.

Key words: financial crimes, money laundering, control, monitoring of suspicious transactions, bank, financial security of commercial banks, compliance.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы формирования системы комплаенс-контроля в коммерческих банках и её взаимосвязь с механизмом обеспечения финансовой безопасности. В исследовании подробно проанализирована роль комплаенса в обеспечении соответствия банковской деятельности законодательству, внутренней политике и международным стандартам. Кроме того, научно оценены функциональные направления комплаенса в укреплении финансовой безопасности — управление рисками, предотвращение коррупционных проявлений, контроль за проблемными кредитами и мониторинг подозрительных операций.

Ключевые слова: финансовые преступления, отмывание денег, контроль, мониторинг подозрительных операций, банк, финансовая безопасность коммерческих банков, комплаенс.

KIRISH

Yevropa Ittifoqi doirasida moliyaviy jinoyatlar va pul yuvish holatlarining keskin oshgani kuzatilmoqda. Eurojust ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi olti yil ichida xalqaro miqyosda ro'yxatga olingan pul yuvish holatlari ikki barobar ortgan. Har yili bu ko'rsatkich global yalpi ichki mahsulotning 2–5 foiziga teng hajmda pul yuvish



amaliyotlarini tashkil etmoqda. Shu bois, xalqaro amaliyotda komplayens-nazorat tizimi moliyaviy firibgarlik, korrupsiya va noqonuniy bitimlarning oldini olishda, shuningdek, bank faoliyatining qonunchilik, etik me'yorlar hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda markaziy o'rin egallaydi [1].

O'zbekiston bank tizimi ham xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil boshida tijorat banklarining kredit portfelida muddati o'tgan va samarasiz kreditlar ulushi (NPL) 3,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich nisbatan barqaror bo'lishiga qaramay, moliyaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar, jumladan, ichki boshqaruvdagi sustlik, manfaatlar to'qnashuvi va kiberxavflarga qarshi zaif himoya tizimlari hali ham mavjud. Shu sababli, mamlakat bank tizimida komplayens-nazoratni kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va raqamli xavfsizlik choralari mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash masalalari xorijiy mualliflarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, S. Bryu, P. Kachalov, R. Kouz, K. Makkonell, V. Nordxauss, S. Robbina, P. Samuelson, A. Striklend, V. Tambovsev, A. Tompson va boshqa iqtisodchilar o'z ilmiy asarlarida ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini tahlil qilganlar. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, unga tahdid soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalari masalalari S. Amanda, S. Axmad, De Goyede, Santyago Moral-Garsiya, V. Zeng kabi xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar — N. Jumayev, D. Raxmonov, A. Burxanov, X. Abulqosimov, I. Abdukarimov, M. Pardayev, T. Malikov, D. Ortiqova, D. Istamov, M. Muxammedov, E. Xodjayev, A. Ishmuxammedov, D. Narzullayeva, A. Parmonov, A. Igamberdiyev, G'. Dadayev, M. Qodirov, D. Rustamov, B. Tursunov va boshqalar ham tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash nazariyasini, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga doir muammolarni ilmiy jihatdan o'rganganlar.

Shunga qaramay, tijorat banklarida moliyaviy xavfsizlikni kompleks tarzda baholash, moliyaviy razvedka faoliyatini takomillashtirish hamda risklarni erta aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlarini ilmiy asosda rivojlantirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash hamda uning moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borilib, unda komplayens-nazoratning xorijiy va mahalliy tajribalari, ularning nazariy asoslari hamda xalqaro standartlar — Basel Committee, COSO va OECD doirasidagi yondashuvlar tizimli ravishda o'rganilgan. Shuningdek, G'arb mamlakatlari, MDH davlatlari va O'zbekiston tajribalari o'rtasidagi komplayens mexanizmlarining o'zaro farqlari va umumiy jihatlari qiyosiy tahlil asosida baholangan.

Tadqiqot jarayonida xalqaro hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari va ilmiy maqolalar asosida moliyaviy xavfsizlikning nazariy hamda amaliy jihatlari kontent-tahlil usuli orqali tahlil etilgan. Empirik yondashuv doirasida tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlari, xususan, ichki nazorat tizimlari, risklarni boshqarish siyosati va shubhali operatsiyalar monitoringi bo'yicha mavjud ma'lumotlar ilmiy asosda umimlashtirilgan. Shu bilan birga, komplayens-nazorat tizimining risk-menejment, ichki audit va AML/CFT tizimlari bilan o'zaro aloqasi sistematik tahlil asosida o'rganilib, ularning integratsion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, Eurojust va Bank for International Settlements (BIS) hisobotlari, shuningdek, xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar asos qilib olingan. Natijada, komplayens tizimini moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida baholash imkonini beruvchi nazariy va amaliy asoslar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda komplayens-nazorat tizimi zamonaviy korporativ boshqaruv va risk-menejment paradigmasining ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tizim korxona faoliyatida qonunchilik talablariga, ichki siyosatlariga hamda xalqaro standartlarga rioya etilishini ta'minlab, firibgarlik, korrupsiya, "pul yuvish" va boshqa noqonuniy moliyaviy amaliyotlarning oldini olishga xizmat qiladi. Komplayens tizimi orqali tashkilot o'zining huquqiy, iqtisodiy va reputatsion xavfsizligini himoya etadi. G'arb adabiyotlarida mazkur tizim "me'yoriy rioya qilish va etik boshqaruvning tizimli mexanizmi" sifatida izohlanadi. Jumladan, xorijiy olim Reuter (2019-yil) komplayensni tashkilotning tashqi va ichki majburiyatlarini bajarish bilan bir qatorda, etik tamoyillar asosida qarorlar qabul qilish tizimi sifatida ta'riflaydi. Basel Committee on Banking Supervision (2020-yil) esa komplayensni moliyaviy institutlarda risklarni aniqlash, ularni monitoring qilish va



qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlash jarayoni sifatida belgilaydi. Boshqa bir tadqiqotchi Deakin (2021-yil) komplayensni ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi bilan bog'lab, uni "korxonaning huquqiy, iqtisodiy va axloqiy chegaralarini belgilovchi ijtimoiy kontrakt" sifatida talqin etadi.

MDH va O'zbekiston olimlari ushbu tushunchaga nisbatan yanada amaliy yondashuvni taklif etadilar. Masalan, M. Fedorova (2020-yil) komplayens-nazoratni "moliyaviy jinoyatlar va sanksiya risklarini kamaytiruvchi himoya chizig'i" deb ta'riflaydi. Mahalliy olim M. Azizov (2022-yil) esa ushbu tizimni ichki audit, nazorat va risk-boshqaruv o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi integratsion mexanizm sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchi D. Karimova (2023-yil) komplayensni "moliyaviy xavfsizlikni kafolatlovchi institutsional mexanizm" deb izohlab, uni davlat va korporativ boshqaruv tamoyillari bilan uzviy bog'laydi. Shu tariqa, komplayens tizimining mohiyati ikki asosiy yo'nalishda talqin qilinadi: birinchisi — me'yoriy-huquqiy rioya mexanizmi sifatida, ikkinchisi esa — risk-menejment va institutsional himoya vositasi sifatida.

Mazkur yondashuvlar o'rtasidagi tafovut nazariy bahs-munozaralarni yuzaga keltiradi. G'arb mualliflari komplayensni mustaqil nazorat funksiyasi sifatida ko'rsalar, MDH mamlakatlari tadqiqotchilari uni boshqa boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalashgan mexanizm sifatida baholaydilar. Komplayensning mustaqilligi, bir tomondan, tashkilotning tashqi bosimlardan himoyalaniish darajasini oshiradi, biroq bu holat resurslarni boshqarish va faoliyatni muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ayrim olimlar komplayensni integratsion boshqaruv modeli sifatida talqin etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Bundan tashqari, komplayens tizimi moliyaviy xavfsizlikning uchta asosiy yo'nalishini qamrab oladi: huquqiy barqarorlik, risklarni boshqarish va reputatsion himoya. Huquqiy barqarorlik qonunchilik talablariga qat'iy rioya etish orqali sanksiyalar va jarimalardan himoyalaniishni ta'minlaydi; risk-menejment komponenti firibgarlik hamda korrupsiya xavfini erta bosqichda aniqlashga xizmat qiladi; reputatsion xavfsizlik esa investorlar va mijozlar ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois komplayens tizimini moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi institutsional immunitet mexanizmi sifatida baholash mumkin. Ayrim mualliflar bu tizimni haddan tashqari formalizatsiya qilish xavfini ham eslatib o'tadilar, biroq bu fikrni amaliy takomillashtirish zarurati sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, komplayens faqat "qoidalarga so'zsiz rioya qilish" emas, balki real xavfsizlikni, ishonchlilikni va barqaror boshqaruvni ta'minlovchi faol tizim sifatida shakllanishi lozim.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda komplayens-nazorat tizimi faqat qonunchilikka rioya qilish bilan cheklanmaydi, balki korxona ichki madaniyatini, etik tamoyillarini va xavf profilini shakllantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi murakkab boshqaruv mexanizmidir. Komplayens tizimi amaliy jihatdan tashkilotning moliyaviy immunitetini yaratadi — u nafaqat mavjud xavflarga javob qaytaradi, balki ularni oldindan aniqlash va bartaraf etish funksiyasini ham bajaradi.

Mualliflar orasida yondashuvlarning qiziqarli uyg'unlashuvi kuzatiladi [6]. Ular axloqning ahamiyati haqidagi [7] tezisini qo'llab-quvvatlaydilar, shu bilan birga, axloqiy tamoyillarni faqat kuchli boshqaruv tizimi bilan uyg'un holda amalga oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, korporativ qadriyatlar boshqaruv tizimiga integratsiya qilinganda va strategik hujjatlarda o'z ifodasini topganda, ular deklarativ tamoyillardan amaliy harakat vositasiga aylanadi. Bu yondashuv COSO ramkasi bilan hamohang bo'lib, unda "nazorat muhiti" — ya'ni qadriyatlar, rahbarlik uslubi va ichki madaniyat ichki nazorat tizimining asosiy elementi sifatida e'tirof etiladi [8].

Shu bilan birga, Basel qo'mitasi ham muvofiqlik masalasini biroz boshqacha talqin qiladi [9]. Ularning yondashuvida huquqiy va boshqaruv jihatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, tartibga soluvchilarning talablari xatarlarni boshqarish bo'yicha ichki qoidalarga aylanadi, bu qoidalar esa o'z navbatida biznes modelining ajralmas qismiga aylanishi ta'minlanadi. Shunday qilib, agar ayrim mualliflar komplayensni faqat huquqiy himoya vositasi sifatida, boshqalar esa axloqiy va boshqaruv tamoyillarini uyg'unlashtiruvchi mexanizm sifatida ko'rsalar, zamonaviy yondashuv bu ikki nuqtai nazarni yagona tizimda integratsiyalashgan konsepsiyaga birlashtiradi [10–11].

Biroq, mualliflar ushbu modellarni universal deb baholamaydilar. AQSh amaliyotida huquqiy yondashuv ustunlik qiladi, bu holat mavjud xulosalar bilan tasdiqlanadi; Yevropada esa axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirilgan yondashuv kuchaytirilgan; Osiyo mamlakatlarida esa komplayens tizimi davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi, bu esa qisman Basel Committee va COSO doiralaridagi konseptual yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Shunday qilib, nazariy jihatdan barcha elementlarning integratsiyasi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda institutsional asimmetriya va milliy o'ziga xosliklar mavjud.

Mazkur tafovutlarni tizimlashtirish maqsadida qiyosiy tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 1-jadvalda ko'rsatilganidek, turli mualliflar muvofiqlikning alohida jihatlari uchun urg'u beradilar. Bu esa komplayensning ko'p o'lchovli mohiyatini mavhum nazariy toifa sifatida emas, balki aniq tadqiqot yo'nalishlari va amaliy qo'llanilish natijalarining yig'indisi sifatida talqin etish imkonini beradi (1-jadval).




1-jadval. Mualliflarning muvofiqlik jihatlari bo'yicha fikrlari

Manba	Yuridik jihat	Axloqiy jihat	Boshqaruv jihat
Momot, T., & Koliada, I.	Asosiy e'tibor: AML/CTF, sanksiyalar va lisenziyalarga rioya qilish	Deyarli ko'rib chiqilmaydi	Deyarli ko'rib chiqilmaydi
Mulyk, A.	Zarur minimum sifatida qaraladi	Asosiy e'tibor: ishonch va korporativ qadriyatlarni shakllantirish	Ikkinchi darajali
Pitsyk, K.	Muhim, lekin ikkinchi darajali deb tan olinadi	Axloqqa katta e'tibor	Eng muhim element-boshqarovda qarorning institutionallashuvi
Rasulov, M. R.	Majburiy poydevor sifatida qaraladi	Tilga olinadi, lekin markazda emas	risk management va biznes modeli compliancing integratsiyasiva
Asiligwa, G. R.	Nazorat tartib-taomillari orqali taqdim etilgan	Nazorat muhitining muhim qismi	Ichki nazorat tizimiga institutsional integratsiya
Vincenzo, D.	AQSh: huquqiy jihatdan ustunlik	Evropa: axloq va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish	Osiyo: boshqaruv va davlat daajasidagi e'tibor

1-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, ilmiy adabiyotlar va amaliyotda komplayensning tarkibiy jihatlari o'rtasidagi nisbat borasida yagona yondashuv mavjud emas. Ba'zi tadqiqotlarda komplayens tizimining hal qiluvchi omili sifatida huquqiy nazoratga ustuvor e'tibor qaratilsa, boshqalarida axloqiy va boshqaruv komponentlari muhim deb baholanadi. Umuman olganda, asosiy ilmiy yondashuvlar ushbu uch yo'nalishni o'zaro integratsiyalashgan tizimda birlashtirishga intiladi. Biroq, qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatning milliy konteksti, huquqiy muhit va boshqaruv madaniyati bu integratsiyani turlicha shaklda namoyon etadi.

Ko'p o'lchovli komplayensning mazmunini yanada aniqroq ifodalash maqsadida grafik modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu modelda huquqiy, axloqiy va boshqaruv jihatlari kesishuvchi sohalar sifatida tasvirlanadi. Bunday vizual yondashuv komplayens tizimining murakkab, lekin o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi hamda uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotlarda muvofiqlikning ko'p o'lchovliligi



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, komplayens tizimining tarkibiy jihatlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liq shaklda faoliyat yuritadi. Huquqiy himoya tizimining minimal darajadagi asosini belgilasa, axloqiy jihat ishonch va obro'ni shakllantiradi, boshqaruv esa institutsionallashuv hamda strategik barqarorlikni ta'minlaydi. Ularning kesishuvi nazariy jihatdan Momot T., Mulyk A. va Pitsyk K. tomonidan taklif etilgan modelni aks ettiradi, Vincenzo D. esa ushbu jihatlarning mintaqaviy farqlarini aniqlab, ularning amaliy taqsimlanishidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatadi.

Aynan shu nuqtada komplayens tizimining ko'p o'lchovliligi yaqqol namoyon bo'ladi: u faqat bitta yo'nalish bilan cheklanmay, huquqiy, axloqiy va boshqaruv asoslari tutashgan nuqtada shakllanadi. Shu bois, komplayens nazariyasi fanlararo konstruktiv yo'nalishga ega bo'lib, turli mualliflarning ilmiy yondashuvlari bilan asoslanadi.

Komplayens-nazorat kontsepsiyasining rivojlanishidagi eng muhim burilishlardan biri uni shunchaki qonunchilikka rioya etish tartib-qoidalariga to'plam sifatida emas, balki strategik aktiv sifatida talqin etish bilan bog'liq. Agar dastlabki yondashuvlar faqat huquqiy chegaralar bilan cheklangan bo'lsa, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda komplayens tizimi bankning uzoq muddatli barqarorligini shakllantiruvchi, manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlovchi va raqobatbardoshligini oshiruvchi omil sifatida talqin etilmoqda.

Tressel T. va Detragiache E. (2021-yil) ta'kidlaganidek, komplayensning eng asosiy qiymati uning strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalanish qobiliyatidir. Ularning fikricha, komplayens tizimi risklarni boshqarish va ichki audit jarayonlari bilan uzviy hamkorlikda qo'llanilganda, bank nafaqat himoya mexanizmini mustahkamlaydi, balki strategik rivojlanish vositasiga ham aylanadi. Shu nuqtai nazardan, komplayens kapital qiymatini kamaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qodir bo'lgan nomoddiy aktivlar tarkibiga kiradi.

Shunga o'xshash xulosalar komplayensning obro'-e'tibor (reputatsion) funksiyasiga e'tibor qaratgan tadqiqotchilarning ishlarida ham uchraydi. Institutsional barqarorlikni ta'kidlovchi yondashuvlardan farqli o'laroq, Bitar M. va Naceur S. (2022-yil) o'z tadqiqotlarida muvofiqlikning asosiy strategik natijasi mijozlar ishonchi ortishi orqali namoyon bo'lishini qayd etadilar. Ularning fikricha, obro'ni yo'qotish banklar uchun har qanday huquqiy sanksiyadan ko'ra jiddiyroq iqtisodiy zarar keltiradi, aksincha, barqaror ishonch uzoq muddatli raqobatbardoshlikning poydevoriga aylanadi. Shu sababli, komplayens tizimi strategik foyda keltiruvchi nomoddiy kapitalga investitsiya sifatida baholanadi.

Podpiera R. va hamkorlari esa (2023-yil) yanada tanqidiy, biroq konstruktiv pozitsiyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, ba'zi banklarda komplayens tizimi faqat formal jarayon sifatida qaraladi, ya'ni amalda talablar bajarilayotgandek ko'rinadi. Bunday holatni bartaraf etish uchun mualliflar komplayensni amaliy natijalarga yo'naltirilgan faol boshqaruv vositasi sifatida takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, haddan tashqari byurokratik jarayonlarni qisqartirish va samaradorlikka yo'naltirilgan mexanizmlarni joriy etish komplayens tizimini yanada moslashuvchan va innovatsion xususiyatga ega qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda komplayensni strategik aktiv sifatida talqin etuvchi ko'p qatlamli manzara shakllanadi. Ayrim yondashuvlarda komplayensning boshqaruv jihatiga urg'u berilsa, boshqalarida — obro'-e'tibor (reputatsion) va tizimli jihatlari ustuvor hisoblanadi; ayrim mualliflar esa rasmiyatchilikning cheklovlari hamda xavf-xatarlarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etadilar. Bunday tahliliy taqqoslash mavjud modellarning afzallik va zaif tomonlarini chuqurroq baholash hamda optimal integratsion yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Komplayens tizimining asosiy vazifasi — bank faoliyatini milliy qonunchilik, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga va xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish orqali korrupsion xavflar, huquqbuzarliklar hamda moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishdan iborat. Shu bilan birga, komplayens tizimi faqat nazorat funksiyasini emas, balki strategik boshqaruvni kuchaytiruvchi, risklarni erta aniqlovchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida shakllanishi zarur.

Banklarning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash maqsadida komplayens-nazoratni risk-menejment, ichki audit hamda AML/CFT (pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish) tizimlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, bank xodimlarining komplayens madaniyatini rivojlantirish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va muammoli kreditlar ustidan shaffof nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali bank faoliyatining barqarorligi va ishonchliligi yanada mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini rivojlantirish — bu nafaqat moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni oshirish vositasi, balki O'zbekiston moliya tizimining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eurojust Report on Money Laundering <https://www.eurojust.europa.eu/publication/eurojust-report-money-laundering>
2. <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/907008>.
3. Reuter, J. (2019). Ethics and compliance management in financial institutions. Oxford University Press. Retrieved from <https://global.oup.com>
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2020). Compliance and the compliance function in banks. Bank for International Settlements. Retrieved from <https://www.bis.org/publ/bcbs113.htm>
5. Deakin, L. (2021). Corporate governance and compliance culture. Cambridge Journal of Economics, 45(3), 405–423. Retrieved from <https://academic.oup.com/cje>
6. Fedorova, E. B. (2020). Komplains-kontrol v bankakh: metodologicheskie podkhody. Finansy i kredit, 26(9), 55–63. Retrieved from <https://www.fin-izdat.ru>
7. Azizov, M. X. (2022). Moliyaviy xavfsizlik tizimida komplayens-nazoratning o'rni. Tashkent Finance Journal, 3(2), 48–57. Retrieved from <https://tfj.uz>
8. Karimova, D. (2023). Institutsional mexanizmlar orqali moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash. O'zbekiston moliya jurnali, 2(4), 22–33. Retrieved from <https://moliya.uz/journal>
9. Pitsyk, K. (2023). Organizational foundations of the legal category «compliance» in the banking system of Ukraine. Scientific and informational bulletin of Ivano-Frankivsk University of Law named after King Danylo Halytskyi. <https://doi.org/10.33098/2078-6670.2023.15.27.1.214-222>.
10. Mulyk, A. (2022). The issue of economic and legal prerequisites for the emergence and development of compliance in the banking sector. Uzhhorod National University Herald. Series: Law. <https://doi.org/10.24144/2307-3322.2022.73.22>.
11. Rasulov, M. R. (2025). International standards and recommendations for implementing compliance control systems in the banking sector. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 7(04), 16–22. <https://doi.org/10.37547/ajpslc/Volume07Issue04-04>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
